

qilish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Umuman olganda, moliyaviy xavflarni chuqur tahlil qilish va ularni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish mintaqaning uzoq muddatli, barqaror va sifat jihatdan yuqori iqtisodiy o'sishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bu esa nafaqat hududiy darajada, balki milliy iqtisodiyot barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiy islohotlarga oid farmon va qarorlari.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.*
3. *Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London, 1936.*
4. *Samuelson P., Nordhaus W. Economics. – McGraw-Hill Education, 2010.*
5. *Mishkin F. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – Pearson Education, 2018.*
6. *World Bank. World Development Report. – Washington DC, so'nggi nashr.*

TIJORAT BANKLARIDA ISLOM BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI

Safarboyev Jasur Safarboy o'g'li
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Hozirgi kunda tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etish jarayoni dunyoning turli mamlakatlarida te'z suratlar bilan amalga oshirilmoqda. Mazkur mavzu tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu xizmatlarni joriy etishning zarurligi, istiqbollari hamda amaliyotda qo'llanilishi mumkinligini o'rganishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: *Islom banki, tijorat banklari, islom krediti, moliya barqarorligi,*

Tadqiqotning Dolzarblik. O'zbekiston aholisining aksariyat qismi musulmon bo'lganligi sababli, xalqaro miqyosda islom bank xizmatlari jadal rivojlanayotgan tendensiyaga aylanganligi, O'zbekistonda ham ushbu xizmatlarni joriy etish zarurati va dolzarbligini belgilaydi. Bundan tashqari, foizli kreditlash amaliyotidan farqli o'laroq, islom bank xizmatlarining insonparvarlik tamoyillari va ijtimoiy adolatli yondashuvlari jamiyatda tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, ushbu xizmatlarni joriy etish uchun tegishli huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni yaratish hamda amaliyotga tadbiiq etish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

Tahliliy qism. Islom bank amaliyoti an'anaviy bank amaliyotidan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

* Foizsizlik: Islom bank amaliyotida foiz olish taqiqlanadi. Buning o'rniga daromad taqsimotiga asoslangan investitsiyalar qo'llaniladi. Foiz matematik termin sifatida qaraladi.

*Shartnoma turlari: Ijara (ijaraga berish), Mudoraba (qarz oluvchi va bank o'rtasida foyda taqsimoti), Musharaka (hamkorlik asosida investitsiya) va boshqa shartnomalar qo'llaniladi.

*Ijtimoiy adolat va risk taqsimoti: Islom banki amaliyoti qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi foyda va zararlarni teng taqsimlashni ta'minlaydi.

O'zbekiston sharoitida islom bank xizmatlarini joriy etishning zaruriyati. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" Strategiyasi tasdiqlandi. Ushu bu farmon bilan iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bank xizmatining sifatni samaradorligini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Ushbu qaror doirasida quyidagilar alohida ta'kidlab o'tilgan:

* Bank xizmatlar va kredit maxsulotlarini xilma-xilligini oshirish. Islom bank amaliyotining joriy etilishi an'anaviy bank xizmatlariga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

* Jamoatchilikning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish. Mamlakatimiz aholisining ehtiyojlariga mos kelgan holda foizsiz kredit mexanizmlarini rivojlantirish va islom banki kreditlarini bilan investitsiyalar ajratish bilan mijozlarga qulaylik yaratishga xizmat qiladi.

* Xalqaro hamkorlik. Islom bank amaliyotining joriy etilishi O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanilgan:

• **Analitik metod:** Islom bankchiligi va tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish va baholash.

• **Statistik tahlil:** Mijozlar ehtiyojlari va bozor hajmini aniqlab to'plangan ma'lumotlar bo'yicha statistika o'tkazish.

• **Ijtimoiy so'rovnoma metod:** So'rovnomalar va intervyular orqali aholining fikrini o'rganish.

• **Kuzatuv va taqqoslash:** xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganish va solishtirish.

Asosiy natijalar Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

1. Xorijiy tajribani chuqur o'rganish natijasida muvaffaqiyatli amaliyotlar aniqlandi va ulardan foydalanish yo'llari taklif qilindi..

2. Tijorat banklarida Islom bank xizmatlarini joriy etish raqobatbardoshlikni oshiradi va yangi mijoz segmentlarini jalb qiladi.

3. Milliy sharoitda islom bank xizmatlarini joriy etish uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlar ishlab chiqildi.

4. Islom moliya mahsulotlari banklarning moliyaviy barqarorligini yaxshilashga yordam beradi, shu bilan birga aholi orasida islom bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj darajasi va qiziqishning yuqoriligi seziladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Islom bank xizmatlarini tijorat banklarida joriy etish mexanizmlari va istiqbollari bo'yicha yangi asoslar ishlab chiqildi. Amaliy ahamiyati esa banklar uchun strategik tavsiyalarni ishlab chiqishda, moliyaviy mahsulotlarni va moliyaviy imkoniyatlarni yaratiladi va moliyaviy barqarorligining oshishiga hissa qo'shgan holda mijoz ehtiyojlarini qondirishda namuna bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etish O'zbekistonning moliyaviy iqtisodiyotiga uchun muhim qadam bo'lishi mumkin. Bu amaliyot bilan islom bankchilik

risklarini adolatli taqsimlash, real iqtisodiyotga moslashish va shariatga asoslangan holda moliyaviy mahsulotlarni taqdim etish bilan ajralib turadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikning chuqurlashishida muhim rol o'ynaydi. Biroq, ushbu amaliyotni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi omillar e'tiborga olinishi lozim:

*Qonunchilik bazasini takomillashtirish, jumladan, Shariat qoidalarini hisobga olgan holda maxsus qonunchilik hujjatlari qabul qilinishi.

* Kadrlar tayyorlash. Islom bank amaliyotiga oid malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini yo'lga qo'yish.

*Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish. Islom bank amaliyotining mohiyatini tushuntiruvchi targ'ibot ishlarini olib borish.

Shu tariqa, tijorat banklarida islom bank xizmatlarini joriy etish "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bilan bank xizmatlar ko'lamini kengaytirish, barqarorlik darajasini oshirish va xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-158, 11.09.2023 y. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.

2. Abduraxmanova, G. G. (2021). Islom moliyasi xizmatlarini O'zbekiston sharoitida joriy etish istiqbollari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/132156>

3. Ergasheva, D. (2025). Tijorat banklari faoliyatida islomiy bank xizmatlarini joriy etish masalalari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. Retrieved from <https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/2173>

GREEN BEYOND THE GLOSS: A CRITICAL DISCOURSE ANALYSIS OF AI-MEDIATED ETHICAL RETAILING AND GREEN MARKETING FOR ECO-CONSCIOUS CONSUMERS

Pethias Siame

Kwame Nkrumah University, Kabwe, Zambia

Abstract. *This article analyzes the linguistic and discursive strategies used in AI-mediated green marketing and ethical retailing communications, examining how they construct and persuade eco-conscious consumers. The analysis is grounded in Critical Discourse Analysis (CDA) and Persuasion Theory, employing a mixed-methods approach of corpus linguistics to analyze large datasets of digital advertising copy, product descriptions, and chatbot interactions, combined with multimodal analysis of branding materials. The research identifies a prevalent use of "green" and "ethical" lexical clusters that are often semantically vague, leading to potential greenwashing. AI-generated consumer-facing texts frequently employ persuasive frames of "empowerment," "transparency," and "collective action," but lack substantive, verifiable detail. A key finding is the dissonance between the personalized, empathetic tone crafted by AI for marketing and the standardized, technical language used in backend sustainability reports, which can erode consumer trust. The study recommends that retailers implement AI ethics guidelines for communicative transparency, mandating clear, substantiated definitions for sustainability claims. Furthermore, developing consumer literacy tools that critically decode marketing language can empower informed choices. Ethical retailing must align AI's persuasive language with verifiable, circular economy practices.*